

MAKTAB O'QUVCHILARIDA KITOBOXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION G'OYALAR USTIDA ISHLASH VA XODIMLARNI JALB QILISH

Айымбетова Калжан Жоллыбаевна

Qo'ng'irot tumanidagi 52-maktab direktori

Qoraqalpog'iston Respublikasi Direktorlar

kengashi a'zosi va xalq ta'lim a'lochisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida innovatsion g'oyalardan foydalanish va bu jarayonga maktab xodimlarini jalb etish masalalari yoritilgan. Kitobxonlikni rivojlantirishda direktorning tashabbuskorligi, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorligi hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, o'quvchilarni kitobga qiziqtirishda rag'batlantirish, ijodiy yondashuv va ommabop usullarning samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik, innovatsiya, maktab direktori, o'quvchilar, o'qituvchilar, ota-onalar, rag'batlantirish, ta'lim jarayoni.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kitob – bilim manbai, tafakkur quroli hamda ma'naviyat mezonidir. Shu bois, maktab ta'limi jarayonida innovatsion yondashuvlar asosida kitobxonlikni targ'ib qilish, o'qituvchilar, kutubxonachilar hamda ota-onalarni mazkur jarayonga faol jalb etish zarurdir.

Asosiy qism

1. Kitobxonlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlar:

Raqamli texnologiyalar asosida kitobxonlik: Elektron kitoblar, audio kitoblar va interaktiv platformalardan foydalanish orqali o'quvchilarni zamonaviy sharoitda kitobga yaqinlashtirish.

Gamifikatsiya (o'yinlashtirish) usullari: Kitob o'qish jarayonini ball tizimi, reyting jadvali yoki musobaqa shaklida tashkil etish. Masalan, "Eng faol kitobxon sinf" tanlovlari.

Onlayn kitobxonlik klublari: Virtual guruhlar orqali o'quvchilar o'qigan asarlari yuzasidan fikr almashadilar, bu esa ularda mustaqil o'qish ko'nikmasini kuchaytiradi.

Ijodiy loyihalar: O'qilgan kitob asosida sahna ko'rinishlari, video roliklar, chizmalar yoki taqdimotlar tayyorlash orqali bolalarda kitobni his qilish va anglash darajasi ortadi.

2. Xodimlarni jarayonga jalg qilishning ahamiyati:

O‘qituvchilar roli: Har bir fan o‘qituvchisi kitobxonlikni rivojlantirishda o‘z faniga oid adabiyotlarni tavsiya qilib, o‘quvchini mustaqil izlanishga yo‘naltirishi mumkin.

Kutubxonachi faoliyati: Innovatsion kutubxona muhitini yaratish, kitob ko‘rgazmalari va interaktiv darslar tashkil qilish orqali kitobxonlik madaniyatini oshirish.

Rahbariyat ishtiroki: Maktab ma’muriyati tomonidan “Kitob haftaliklari”, “Adabiyot kuni” kabi tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish.

Ota-onalarni jalg etish: Oilaviy kitobxonlik an’analarini shakllantirish, ota-onalar va farzandlar ishtirokida kitobxonlik uchrashuvlarini o‘tkazish.

3. Kutilayotgan natijalar:

O‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv shakllanadi.

O‘qishga qiziqish ortadi, ilmiy va badiiy adabiyotlar orqali dunyoqarash kengayadi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali muloqot kuchayadi.

Maktab jamoasi va ota-onalarning hamkorlikda ishlashi ta’lim sifatini oshiradi

Maktab o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun innovatsion g‘oyalar ustida ishlash va barcha xodimlarni jarayonga jalg qilish dolzarb vazifadir.

Qo‘ng‘irot tumanidagi 52-sonli maktabda virtual kutubxona ham bor. Har bitta maktabning faoliyati va o‘quvchilarni qiziqtirish uchun o‘quv burchaklari va ana shu singari kutubxonalarning mavjudligi hozirgi kunda har bir yoshlarning ko‘nglidan joy olib ularni yanada o‘qishga chorlab qolmoqda.

Kitobxonlik – faqat bir fan yoki bir kutubxona masalasi emas, balki butun maktab jamoasi hamda ota-onalar hamkorligida amalga oshiriladigan jarayondir. Innovatsion yondashuvlar asosida yo‘lga qo‘ylgan kitobxonlik ishlari o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ma’naviy olamini ham boyitadi.

Maktabda kitobxonlikni targ‘ib qilish faqat o‘qituvchilar yoki kutubxonachining vazifasi emas. Bu jarayonning boshida, albatta, direktorning o‘zi turadi. Chunki direktorning tashabbusi va qo‘llab-quvvatlashi bo‘lmasa, kitobxonlik madaniyati barqaror yo‘lga qo‘yilmaydi.

Direktor quyidagi oddiy, ammo samarali xatti-harakatlar orqali maktabda kitobga mehr uyg‘otishi mumkin:

1. Shaxsiy namuna ko‘rsatish

Direktoring o‘zi kitob o‘qib, o‘qigan asarlari haqida o‘quvchilar va xodimlar bilan suhbatlashishi bolalarda katta ta’sir uyg‘otadi.

Kutubxonaga tez-tez kirib, kitoblarni ko‘rib chiqishi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan kitob haqida fikr almashishi muhim.

2. Maktabda kitob muhitini yaratish

“Kitob burchagi” yoki kichik “mini-kutubxonalar”ni sinflarda tashkil etish.

Devoriy gazetalar, stend va ekranlarda mashhur yozuvchilarining iqtiboslari va kitob tavsiyalarini joylashtirish.

Maktab ichki tadbirlarida kitobga doir savol-javoblar, viktorinalar va sahna ko‘rinishlari o‘tkazish.

3. Xodimlarni jalg qilish

Har bir fan o‘qituvchisiga kitobxonlik bilan bog‘liq kichik vazifalar berish (masalan, darsda qo‘shimcha kitobdan parchalar o‘qish).

Kutubxonachini faollashtirish: kitob ko‘rgazmalari, yangi kelgan adabiyotlarni taqdim qilish marosimlarini tashkil etish.

Sinf rahbarlaridan haftada bir marta sinfda kitobxonlik daqiqalarini o‘tkazishni so‘rash.

4. Ota-onalarni jalg qilish

“Ota-onsa va farzand bilan kitobxonlik oqshomi” kabi tadbirlar uyuştirish.

Ota-onalarga yoshga mos kitoblar ro‘yxatini taqdim etish.

Eng ko‘p kitob o‘qiydigan oilalarni rag‘batlantirish.

5. Rag‘batlantirish tizimi

“Eng faol kitobxon sinf”, “Oy kitobkashlari” kabi tanlovlardan tashkil etish.

G‘oliblarni faxriy yorliq, kitob sovg‘asi yoki maktab sahnasida e’tirof etish.

Rag‘bat faqat o‘quvchilar uchun emas, balki o‘qituvchilar va ota-onalarga ham berilishi mumkin.

6. Innovatsion yondashuvlardan foydalanish Elektron kutubxona yoki mobil ilovalar orqali o‘quvchilarga audio va elektron kitoblarni tavsiya qilish.

Kitobxonlikni ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish, maktab sahifasida “Haftaning kitobi” ruknini yuritish.

Xulosa: Direktor kitobxonlikni rivojlantirishda tashabbuskor bo‘lsa, butun jamoa ham bu ishga jon-dilidan qo‘shiladi. Asosiysi, bu jarayon majburlash orqali emas, balki qiziqarli tadbirlar, rag‘batlantirish va shaxsiy namuna orqali yo‘lga qo‘ylsa, o‘quvchilarda kitobga mehr tabiiy ravishda shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy va ma’rifiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, kitobxonlik madaniyatini oshirish to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
3. Jo‘rayev, M. “Maktab o‘quvchilarida kitobxonlikni shakllantirishning samarali yo‘llari”. – Xalq ta’limi jurnali, 2021, №4.
4. Saidov, A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Abdullayeva, N. “Kitobxonlikni rivojlantirishda ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi”. – Ilmiy axborotlar to‘plami, 2022, №2.